XALQ DEPUTATLARI SHO‘RCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-012-8-120-K/24 Sho‘rchi tumani

Sho‘rchi tumanining 2025 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-016-8-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 22-13/985-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Sho‘rchi tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-016-8-0-K/24-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Sho‘rchi tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari 132 174 900.0 ming.so‘m va xarajatlari esa 132 174 900.0 ming.so‘m ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Sho‘rchi tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 425 191.0 ming.so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi 3-ilovaga muvofiq, shuningdek Sho‘rchi tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar meyorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 1 695 000.0 ming.so‘m miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Chorshanbiyev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi **(Z.Omonov)**, tuman soliq inspeksiyasi **(Sh.Zokirov)** bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Sho‘rchi tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari doimiy komissiyasi **(M.Yuldashev)** hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Chorshanbiyev zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi MAMASHUKUROV OLIMJON KAYUMOVICH

Xalq deputatlari Sho‘rchi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-012-8-120-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Sho‘rchi tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

T/R	Daromad turlari	Jami
I.	**Mahalliy soliq va tushumlar**	**132 174 900**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	10 146 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	47 961 900
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 224 000
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 816 000
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	10 514 000
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 150 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	30 485 000
8	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	340 000
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 284 000
10	Davlat boji	10 730 000
11	Yig‘imlar	3 447 000
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	77 000

Xalq deputatlari Sho‘rchi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-012-8-120-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Sho‘rchi tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**132 174 900**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	132 174 900
1	**Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi**	**34 541 421**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	34 541 421
	shundan:	
	"Mening maktabim"	4 333 464
3	**Madaniyat bo‘limi**	**5 455 097**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 455 097
4	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi**	**5 671 869**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 671 869
5	**Sport bo‘limi**	**12 911 745**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 911 745
6	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**2 565 262**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 565 262
7	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**4 202 781**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 202 781
	shundan:	
	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boʻlimi	3 159 270
	Xayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xafsizligi davlat markazi	553 565
	Fermer xoʻjaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi	489 946
8	**Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi**	**1 329 658**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 329 658
9	**Iqtisodiyot va moliya boʻlimlarini saqlash xarajatlari**	**2 090 791**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 090 791
10	**Hokimyat**	**45 423 453**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	45 423 453
	shundan:	
	Ijtimoiy koʻnikma markazlari	60 692
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini oʻtab boʻlgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	34 650
	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi	28 712 000
	"Mahalla budjeti" jamgʻarmasi mablagʻlari	2 721 000
	Zahira jamgʻarmasi	1 695 000
11	**Hokimyat (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	**782 158**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	782 158
	shundan:	
	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	146 296
	Axborot-kutubxona markazlari	635 862
12	**Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)**	**17 200 665**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	17 200 665

Xalq deputatlari Sho‘rchi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-012-8-120-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Sho‘rchi tuman mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**132 174 900**	**132 174 900**
Sho‘rchi tumani	132 174 900	132 174 900

Xalq deputatlari Sho‘rchi tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-012-8-120-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Sho‘rchi tumani	0%	70%	100%	30%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

№	Hududlar nomi	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar		Aylanmadan soliq		Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i		Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq		Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar																	
1	Sho‘rchi tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%

Izoh: *1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.*

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950, 3 450 951 daromad kodi bo‘yicha) tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

3. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliklar (mol-mulkni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i bundan mustasno), soliqsiz tushumlar xamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.